Tadbirkorlik faoliyati va uning iqtisodiyotga qo'shadigan hissasini oshirishda ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish university of business and science.....	782
I.M.Kamoliddinov, G.X.Dadajanova	
Agro turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari	787
Yaxshiliqov Jo'raqul Rahmiddin o'g'li, Farhod Mahmudovich Tirkashyev	
Bilvosita soliqqa tortish nazariyasi	791
Ergashev Ilxomjon Obodovich	
Значение удобрений в минерализации гумуса и мобилизации азота старооращаемого светлосерозема	795
Хакимов Шавкатжон Закирович	
Budjet subsidiyalaridan energetika sohasida foydalanish amaliyoti	800
Madreimov Aytbay Orazbaevich	
Paxta – to'qimachilik klasterlari doirasida bog'dorchilik klasterlarini rivojlantirish yo'nalishlari.....	804
Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich	
Sport sohasini moliyalashtirishda xorijiy davlatlar tajribasi.....	812
M.N. Mamatov	
Moliyaviy instrumentlarning hisobi va audit masalalari.....	816
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Kichik biznes korxonalarida ta'minot zanjiri tizimidan foydalanishning uslubiy asoslari.....	824
Abdovaxobov Boburmirzo Botirovich	
Xalqaro valyuta fondi ko'rsatkichlari asosida mamlakatdagi joriy iqtisodiy holatni baholash.....	828
Askarova Mavluda Turabovna, Jalolova Madina Shopo'lat qizi	
Effectiveness of modern methods in the development of transport systems.....	834
Fayzullaev Javlonbek Sultanovich	
Kichik biznesni innovatsion rivojlanishida infrastrukturaning o'rni university of business and science	839
O.X.Ergashev, E.N.Nosirov	



Hududlarni rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihasi ko'rsatkichlari tizimining funksional jihati	843
I.E.Kenjaye	
Ekologik muammolarni atrof-muhitni himoyalashga ixtisoslashgan ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali bartaraf etish yo'llari.....	850
Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
Sanoat tarmoqlarida eksportni diversifikatsiyalash: strategiya va tahlil	856
K.M. Umarkulov	
Развитие и управление рынком капитала в цифровой экономике – проблемы и современные решения	861
Киличева Ф.Б., Бозорова О.Р.	
Перспективы развития железнодорожной транспортной системы Республики Узбекистан в условиях зеленой экономики	867
Мухамедова Ситора	
Sug'urta korxonalarida xususiy kapital hisobini takomillashtirish	871
Shirinov Uchqun, Najimova Nigora	
Banklarning moliyaviy baqraqarorlik ko'rsatkichlari orqali ularning reytingini aniqlash yo'nalishlari	874
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
Investment funds and their types	879
Sultanboeva Munira Bakhodirovna	
Baliqchilik sohasini rivojlantirishda xorij tajribalari va ulardan samarali foydalanish	886
Matmuratova Nigora Ruzmatovna	
Рынок труда и строительная индустрия узбекистана в условиях демографического роста и урбанизации	891
Тула Нодирбек Баходир угли, Махмутходжаева Луиза Сайфуллоевна	
Kichik biznesni rivojlantirishda bank xizmatlarining o'rni va ahamiyati.....	898
Umirzoqov Faxriddin Farhodovich	
Raqamli iqtisodiyotda iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi omillarning empirik tahlili	901
Abdullayev Suyun Artikovich	
Цифровая трансформация услуг в сельской местности в условиях современного развития.....	906
Халимов Шахбоз Халимович	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni qisqartirish imkoniyatlari va ulardan foydalanish natijalari.....	910
Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Практические аспекты реализации инициативного бюджетирования в Республике Узбекистан.....	915
Нурмухамедова Барно Исмаиловна, Урунова Гульнора Чарикулиевна	
O'zbekistonda milliy ko'p o'lchovli kambag'allik indeksini ishlab chiqish.....	922
Urazbayev Raxmatjon Otajanovich	
Mulkiy soliqlarning hududlar iqtisodiy o'sishiga ta'siri.....	934
Aliyarov Olim Abdug'aparovich	
Bozor mexanizmlarini davlat tomonidan tartibga solish zaruriyati va ziddiyatlari	941
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
To'dako'l suv omboridagi kumush tovonbaliqning (Carassius Gibelio) "truss-protocol" bo'yicha tahlil ko'rsatkichlari	946
Hakimova Ruxsatoy Begmurodovna, Umarov Husan Laziz o'g'li	
O'zbekistonda raqamlashtirish va ta'lim orqali ishchi kuchi samaradorligini oshirish yo'llari	951
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich	
Pul oqimlari hisobotini tahlil qilishning strategik ahamiyati	958
Karimov Eminjon Gapardjonovich	



O'zbekiston farmatsevtika sohasida ERP tizimining afzalliklari.....	963
Mirzakarimova Maftuna Baxromjon qizi	
The content and essence of entrepreneurship and its categorization.....	969
Nasriddinov Qobilbek Qurbonbekovich	
Mehnat migratsiyasi: sabab va oqibatlari.....	974
Djurayev Olimjon Narkulovich	
Mintaqa iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanishida erkin iqtisodiy zonalarning tutgan o'rni.....	979
Ataimatov Iqboljon Zumratjonovich	
Tadbirkorlik universitetlarida moliyaviy mablag'larni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari.....	984
Xojayev Azizxon Saidaloxonovich	
Davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar iqtisodiy samaradorligini baholash.....	991
Mengnarov Adham Ergashovich	
Halqa tukli matolarini ishlab chiqarish jarayonining ilmiy tahlili.....	998
Mamadalieva Dildora Abdulmalikovna	

BIZNES TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY HISOBOTLARI MAQSADI, TARKIBI VA BIZNES QARORLARDA QO'LLANILISHI



Misirov Asliddin Mamasobirovich

Samarqand iqtidodiyot va servis instituti
"Buxgalteriya hisobi" kafedasi assistenti
Orcid ID: 0009-0004-2030-8966



Turabekov Bekali

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali talabasi
Orcid ID: 0009-0006-6100-0161

Annotatsiya: Ushbu maqolada biznes tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari maqsadi, tarkibi va ularning qaror qabul qilish jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan. Moliyaviy hisobotlarning aniqligi va to'liqligi biznes samaradorligini oshirish va strategik maqsadlarga erishishda qanday rol o'ynashi ko'rsatilgan. Tadqiqotda statistik tahlil va modellashirish usullari qo'llanilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, biznes tashkilotlar, BHMS, MHXS, xalqaro standart, milliy standartlar.

Abstract: This article analyzes the purpose, structure of financial statements of business organizations, and their significance in decision-making processes. It highlights how the accuracy and completeness of financial reports enhance business efficiency and aid in achieving strategic goals. Statistical analysis and modeling methods were employed in the study.

Key words: financial reporting, business organizations, BHMS, IFRS, international standard, national standards.

Аннотация: В данной статье анализируются цели, структура финансовой отчетности бизнес-организаций и её роль в процессе принятия решений. Показано, как точность и полнота отчетности влияет на повышение эффективности бизнеса и достижение стратегических целей. В исследовании использованы методы статистического анализа и моделирования.

Ключевые слова: финансовая отчетность, коммерческие организации, международный стандарт, национальные стандарты.

KIRISH

Globalashuv jarayonlarining kengayishi jahon mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning yanada takomillashuviga olib keladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xalqaro hisob tizimini taraqqiy ettirishda aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari, davlat ulushiga tegishli xo'jalik jamiyatlari va yirik soliq to'lovchilarning moliyaviy hisobotlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tayyorlashi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi hisob siyosatida muhim o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, milliy standartlarning tuzilishini alohida qayd etish zarur. Hozirgi



kunga qadar buxgalteriya hisobining 20 dan ortiq milliy standartlari qabul qilingan va amalda qo'llanilmoqda. Moliyaviy holat va undagi o'zgarishlarni baholashda bu standartlar ko'plab noaniqliklarga javob topish imkonini beradi. Jumladan, aktivlar, daromad va xarajatlarni tan olish, mulkni haqiqiy qiymatini aniqlash va odilona baholash, aktivlarni likvidlik bo'yicha tarkiblash va ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish tartiblari bo'yicha umumiy yondashuvlarni belgilab beradi.

Shu bilan birga, buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishda xorijiy amaliyotda qo'llaniladigan standartlar (MHXS) bilan milliy standartlar o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Bu farqlar moliyaviy holat tahliliga va uning mazmuniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevralda qabul qilingan "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4611-son¹ qarori ushbu sohada muhim bosqich bo'ldi. Qarorning asosiy maqsadi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash, xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va hisob hamda audit sohalaridagi mutaxassislarni xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirishdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Biznes tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari tashkilotning moliyaviy holatini aks ettiruvchi asosiy hujjatlar sifatida iqtisodiy qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy hisobotlarning asosiy maqsadi tashkilotning moliyaviy ko'rsatkichlarini taqdim etish orqali menejerlar, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarga tashkilotning moliyaviy barqarorligi va unumdorligini tahlil qilish imkoniyatini yaratishdan iboratdir.

R. G. Eccles va N. Nohria moliyaviy hisobotlarning to'g'ri tuzilishi tashkilotning strategik qarorlarini samarali qabul qilishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, hisobotlarda aks ettirilgan ma'lumotlarning ishonchlilik va to'g'riligi tashkilotning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhimdir.

M. Porter va K. Bowman moliyaviy ko'rsatkichlarning strategik ahamiyatini o'rganib, hisobotlardagi daromad, xarajat va sof foyda kabi ko'rsatkichlarning raqobatbardoshlikni baholashda qanday rol o'ynashini ko'rsatib o'tgan. Ularning tadqiqotlari moliyaviy hisobotlarning strategik rejalashtirish jarayonida ahamiyatli bo'lgan barcha tafsilotlarni o'z ichiga olishini ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, I. Fisher va J. Jordan moliyaviy hisobotlardan investitsiya qarorlarini qabul qilishda foydalanishning uslubiy asoslarini ishlab chiqib, moliyaviy tahlil vositalarini amaliy qo'llash yo'llarini taklif qilgan.

A. Smith va M. Hossain moliyaviy hisobotlardagi daromad va xarajatlarni batafsil tahlil qilish tashkilot samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. Ularning fikriga ko'ra, moliyaviy hisobotlar nafaqat tashkilotning hozirgi holatini aks ettirishi, balki kelajakdagi moliyaviy holatni prognoz qilish uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Kaplan va Norton o'zlarining "Balanslangan kartochka" konsepsiyasida moliyaviy hisobotlarning strategik boshqaruv vositasi sifatida ahamiyatini ta'kidlab, hisobotlarni tashkilotning umumiy maqsadlari bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, Horngren, Sundem va Stratton moliyaviy hisobotlarning asosiy tarkibiy qismlarini o'rganib, ularning biznes qarorlarini qabul qilishda qanday ahamiyat kasb etishini ko'rsatgan. Ular moliyaviy hisobotlarning to'liq va aniq bo'lishi korxonaning investitsion salohiyatini oshirishda asosiy omil ekanligini ta'kidlagan. Brealey va Myers esa moliyaviy hisobotlar yordamida korxonaning moliyaviy sog'lomligini baholash uchun ishlatiladigan asosiy usullarni ishlab chiqqan.

Shu tariqa, moliyaviy hisobotlar tashkilotning moliyaviy faoliyatini aks ettiruvchi va biznes qarorlarini qabul qilishda yo'nalish beruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Ular asosida tashkilotning hozirgi moliyaviy holatini tahlil qilish, strategik maqsadlarni belgilash va investitsiya qarorlarini qabul qilish imkoniyati yaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida biznes tashkilotlarining moliyaviy hisobotlariga oid ma'lumotlar statistik bazalar, kompaniyalar yillik hisobotlari va moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha nashrlardan olindi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda komparativ tahlil, ko'rsatkichlarni o'zaro solishtirish va korrelyatsion tahlil usullari qo'llanildi. Shuningdek, moliyaviy qarorlar qabul qilishga ta'sirini aniqlash uchun iqtisodiy modellashtirish usuli ishlatildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobi subyekti faoliyatining hisobot sanasidagi moliyaviy holati, hisobot davridagi moliyaviy natijalari va pul mablag'larining harakati to'g'risidagi tizimlashtirilgan axborotdan iboratdir. 1-son Buxgalteriya Hisobi Xalqaro Standarti (BHXS) "Moliyaviy hisobotni taqdim etish"da "umumiy

¹ <https://lex.uz/docs/-4746047>

foydalanishdagi moliyaviy hisobot” tushunchasi kiritilgan. Bu tushuncha shunday foydalanuvchilar ehtiyojini qondirishga qaratilganki, ular o‘zlarining aniq axborot ehtiyojlariga to‘liq javob beradigan hisobotlarni talab etish imkoniyatiga ega emaslar. Bunday moliyaviy hisobotlar yiliga kamida bir marta tayyorlanadi va taqdim qilinadi. U keng doiradagi axborot foydalanuvchilarning umumiy ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallangan.²

1-son MHXSga muvofiq, boshqa yalpi daromadlar tarkibiga quyidagilar kiradi³:

- “Asosiy vositalar” nomli 16-son MHXS va “Nomoddiy aktivlar” nomli 38-son MHXSga muvofiq qayta baholash natijalari;
- “Moliyaviy hisobotlarni taqdim qilish” nomli 1-son MHXSga muvofiq pensiya to‘lovlari bo‘yicha aktuar foyda va zararlar;
- “Valyuta kursi o‘zgarishlarining ta’siri” nomli 21-son MHXSga muvofiq xorijdagi faoliyat bo‘yicha moliyaviy hisobot moddalarini qayta hisoblash natijasida yuzaga kelgan foyda va zararlar;
- “Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash” nomli 39-son MHXSga muvofiq qayta sotish uchun mavjud bo‘lgan moliyaviy aktivlarni qayta baholash natijasida yuzaga kelgan foyda va zararlar;
- Pul oqimlarini xedjirlash natijasida xedjirlash vositasi bo‘yicha foyda va zararlar.


Moliyaviy hisobotlar shunday foydalanuvchilar axborot talablarini qondirishga mo‘ljallanganki, ular axborotni maxsus talablariga moslashtirilgan shaklda olish imkoniyatiga ega emaslar. Ushbu ta’rifni qisqacha qilib aytganda, moliyaviy hisobot – korxonaning moliyaviy ahvoli to‘g‘risidagi yagona ommaviy axborot manbasi hisoblanadi.⁴

Boshqa bir adabiyotlarda moliyaviy hisobot korxonaning iqtisodiy-moliyaviy holatini ochib beruvchi hujjat sifatida ko‘rsatilgan. Uning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

1. Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot;
2. Umumlashtirilgan daromad to‘g‘risidagi hisobot;
3. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot;
4. Xususiy kapital harakati to‘g‘risidagi hisobot.

Moliyaviy hisobot umume’tirof etilgan qoidalar asosida tashkilotning moliyaviy holati, moliyaviy-iqtisodiy faoliyati natijalari hamda pul mablag‘lari harakati to‘g‘risida haqqoniy va sifatli axborotlarni o‘zida mujassamlashtirgan tizimni anglatadi. Bu hisobot ichki va tashqi axborot foydalanuvchilarning qarorlar qabul qilish va nazorat qilish uchun umumiy axborot ehtiyojlarini ta’minlashga xizmat qiladi.⁵

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (MHXS) muvofiq tuzilgan hisobotlar korxona uchun qarz beruvchilar, hozirgi va potensial investorlar, shuningdek boshqa kreditorlar uchun zarur bo‘lgan moliyaviy axborotni taqdim etadi. Bu axborot hisobot beruvchi tashkilotga resurslarni taqdim etish to‘g‘risidagi qarorlarni qabul qilishda foydali bo‘lishi muhimdir (1-rasm; 1-jadval).



1-rasm. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari dolzarbligi.

² S.N. Tashnazarov; Moliyaviy buxgalteriya hisobi 1; darslik 113-bet

³ Ismanov, I. N., & Axmadaliyev, B. (2021). Factors Influencing The Formation Of International Budget Accounting Systems. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(09), 21-30.

⁴ www.mf.uz – Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari

⁵ S.N. Tashnazarov; Moliyaviy buxgalteriya hisobi 1; darslik 116-bet



1-jadval. Moliyaviy hisobotlarning MHXS va BHMS asosida nomlanishining qiyosiy tahlili⁶.

MHXS	BHMS
Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot	Buxgalteriya balansi
Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risidagi hisobot	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot
Kapitaldagi o'zgarishi to'g'risidagi hisobot	Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot
Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot	Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot
Hisob siyosati va tushuntirishlar	Izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar

Moliyaviy hisobotlarning kamchiliklari:

- Hisobotlar ko'pincha turlicha talqin qilinadi, shu sababli investorlar kompaniyaning moliyaviy ko'rsatkichlari bo'yicha turli xulosalar chiqaradilar. Misol uchun, ba'zi investorlar aksiyalarni qaytarib sotib olishni afzal ko'rsa, boshqalari uzoq muddatli aktivlarga investitsiya qilingan mablag'larni ko'rishni ma'qul ko'rish mumkin. Kompaniyaning qarz darajasi bir investor uchun maqbul bo'lsa, boshqa investorlar uchun xavotirli bo'lishi mumkin.

- Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilishda turli davrlarni solishtirish va ko'rsatkichlarni aniqlash muhimdir, bu kompaniyaning natijalarini raqobatchilari bilan taqqoslash imkonini beradi.

Moliyaviy hisobotlarning afzalliklari:

- Moliyaviy hisobotlar korxonaning qanday ishlashini ko'rsatadi. U korxona qancha va qanday daromad keltirishi, biznes yuritish uchun qancha xarajat ketishi, pul mablag'larini qanchalik samarali boshqarishi, aktivlari va majburiyatlari nimadan iborat ekanligi haqida tushuncha beradi. Moliyaviy hisobotlar kompaniyaning o'zini qanchalik yaxshi yoki yomon boshqarayotganini aniq tasvirlab beradi.

- Hozirgi vaqtda aksiyadorlar va boshqa foydalanuvchilar uchun tayyorlanayotgan moliyaviy hisobotlarda turli mamlakatlarda qo'llaniladigan buxgalterlik prinsiplari va qoidalar ishlatilmoqda. Shuning uchun hisobotlarning taqqoslanuvchanligi yetarli darajada emas. Bu holat investitsion tahlilchilar va boshqa foydalanuvchilar uchun hisobotni tahlil qilishda qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi.

- Turli mamlakatlarda tuzilgan moliyaviy hisobotlar turli standartlarga binoan tayyorlanganligi tufayli chalkashliklar yuzaga keladi. Bu esa kapitalning jahon bozorida samarali raqobatlashishini pasaytirishi va kompaniyalar kapitalni saqlash uchun yuqori xarajatlarni o'z zimmlariga olishlariga sabab bo'ladi.

- Eng muhimi, turli mamlakatlarda moliyaviy hisobotlardagi foyda miqdorining farqli ko'rsatilishi natijasida buxgalterlik hisobotlariga bo'lgan ishonch susayadi.

Moliyaviy holat va undagi o'zgarishlarni tahlil etishdagi o'xshashliklar buxgalteriya hisobining muhim tamoyillaridan biri bo'lgan mazmunning shakldan ustunligi tamoyili bilan izohlash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada biznes tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarning o'rni bo'yicha quyidagi xulosalar keltirildi:

1. Biznes tashkilotlarda moliyaviy hisobotlarning maqsadi va tuzilishi, moliyaviy hisobotlarning biznes qarorlar qabul qilishdagi ahamiyati hamda qarorlarni qo'llab-quvvatlash tamoyili har tomonlama tahlil qilindi. Shuningdek, moliyaviy hisobotlarning monitoringi, avtomatlashtirish va xavfsizligini ta'minlash kabi dolzarb jabhalari o'rganildi.

2. "Akparshoh biznes" mas'uliyati cheklangan jamiyatning umumiy tavsifi, jumladan ustavida belgilangan ma'lumotlar, tarkibiy tuzilishi va bo'linmalari yoritib berildi. Shuningdek, jamiyatda moliyaviy hisobotlar tuzish tartibi, hisobot tuzishda qo'llaniladigan asosiy qoidalar, hisobotlarning tasnifi va tavsifi haqida ma'lumot berildi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) va buxgalteriya hisobining milliy standartlariga (BHMS) muvofiq tayyorlangan yalpi daromad to'g'risidagi hisobot aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining moliyaviy natijalari ko'rsatkichlarini shakllantirishning muhim manbai hisoblanadi. Ushbu hisobot daromadlar manbalariga qarab tasniflanadi va daromad hamda xarajatlarni guruhlar o'rtasidagi nisbat prinsiplari asosida tuziladi. Xalqaro standartlar asosida ushbu hisobot turini tayyorlash uchun qonunchilikka bir qator o'zgartirishlar kiritish zarur.

"Akparshoh biznes" MCHJda MHXS va BHMSga yaqinlashish bo'yicha hisob siyosati bo'yicha asosiy uslubiy tavsiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

BHMS va MHXSda berilgan debitorlik va kreditlar uchun zaxiralarni yaratishning yagona metodologiyasini qo'llash;

6 Davron Eshmurodovich Norbekov, Nargiza Shavkat qizi Toirova; "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot: milliy va xalqaro tajriba" maqola



Foyda yoki zarar, hisobot davrining sof foydasi (zarari), yalpi daromadning har bir komponenti va boshqa yalpi daromaddagi uyushgan yoki hamkor tashkilotlarning ulushlarini hisoblash;

Nazorat qilinmaydigan ulushli qatnashish va bosh kompaniya ta'sischilariga tegishli foyda yoki zarar va jami yalpi daromadni hisoblash;

MHXS tamoyillariga muvofiq BHMSda zaxiralarni yaratish va ularni muntazam inventarizatsiya qilish, likvidsiz zaxiralarni hisobdan chiqarish;

Sud jarayonlari uchun zaxira yaratish bo'yicha MHXSni zaxiralash tamoyillariga rioya qilish;

Foydalanilmagan ta'tillar uchun zaxira yaratish va uni tiklashga yagona metodologiyani joriy etish.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi: O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi.-T.: "Adolat", 2022 y. - 400b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori.
3. International Financial Reporting Standards. www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ 2018.
4. A. A. Karimov, A. K. Ibragimov, N. K. Rizaev, N. M. Imamova-moliyaviy hisobot standardari / dars.-T.: «Moliya», 2021-310 B.
5. Abdukarimov I.T. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari.— T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1999.
6. Abdukarimov B.A. va boshq. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. - T.: Fan,2005. - 287 b
7. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Oliy o'quv yurtlari magistratura mutaxassisliklari uchun darslik. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA», 2019. – 584-b. <https://www.academia.edu>
8. S.N.Tashnazarov, K.B.Urazov, D.S. Tashnazarova. Boshqaruv buxgalteriya hisobi. Darslik. –Toshkent, 2022. -448 b.
9. Urazov K.B. Savdoda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish.—T.:Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2004.—336 b
10. Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari. Monografiya. - T.: Fan, 2005, 234 –b;
11. www.lex.uz
12. <http://www.audit-it.ru>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2024. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

